



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№7



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

*Elektron nashr. 71 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhmatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli	20
Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich	
BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili	26
Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.	
Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish	31
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
Korxonada iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli.....	35
Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi	
Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху	40
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector	49
Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi	
Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari.....	56
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Mechanisms for stimulating investment activity at energy industry enterprises.....	60
Matchanov Umirzak Seytjanovich	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari	66
Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich	



MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA TURIZM INDUSTRIYASIDAN FOYDALANISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBALARI

Abdulkakimov Zuxrali Tursunaliyevich

Namangan davlat texnika universiteti
“Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti,
iqtisodiyot fanlari falsafa doktori (PhD)
Orcid.org/0000-0003-0991-7336,
email: zuhraliabdulkakimov42@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini turizm industriyasi orqali ta'minlash, turistik faoliyatni rivojlantirish uchun xorijiy mamlakatlar tajribalaridan keng foydalanishga asoslangan mintaqalarda turizm faoliyatini barcha mavsumlar uchun mos keladigan tajribalarni qo'llash maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: turizm, xalqaro turistik oqimlar, turizm industriyasi, turistik faoliyat, mintaqa iqtisodiyoti, xalqaro turizm, turistik oqim, turistik bozor, tabiiy-rekreasion resurs, turistik obyekt, landshaft, tarixiy va arxitektura yodgorliklar, milliy va etnik tarkib, turistik markazlar.

Abstract: This article aims to ensure the sustainable development of the country's economy, the socio-economic development of regions through the tourism industry, and the widespread use of the experience of foreign countries for the development of tourism activities.

Key words: tourism, international tourist flows, tourism industry, tourist activity, regional economy, international tourism, tourist flow, tourist market, natural-recreational resource, tourist object, landscape, historical and architectural monuments, national and ethnic composition, tourist centers.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам устойчивого развития экономики страны и обеспечению социально-экономического развития регионов посредством туристической индустрии. Особое внимание уделяется широкому использованию опыта зарубежных стран для развития туристической деятельности, а также применению опыта, подходящего для всех сезонов туристической деятельности в регионах.

Ключевые слова: туризм, международные туристические потоки, туристическая индустрия, туристическая деятельность, региональная экономика, международный туризм, туристический поток, туристический рынок, природно-рекреационные ресурсы, туристические объекты, ландшафт, исторические и архитектурные памятники, национальный и этнический состав, туристические центры.

KIRISH

Oxirgi o'n yillardagi kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, turizm yuqori darajada rivojlanib bormoqda. Insonning mehnat faoliyati davomida yo'qotayotgan jismoniy, aqliy, ruhiy kuchlarini qayta tiklash ehtiyojlari ko'paydi. Yevropa mamlakatlarida xususan Amerika, Osiyo, Okeaniyada ilmiy-texnik progressning ta'sirida inson mehnat faoliyati davomida ilmiy texnika yutuqlaridan keng foydalanish ham turizmga bo'lgan ehtiyojni yanada ko'paytirdi. Ishlab chiqarishning turli-tuman tarmoqlarining jadallashuvi bilan aholini salomatligini tiklash uchun turizmni rivojlantirish talab etiladi. Ularni rivojlanishi xalqaro turistik oqimlarning sonini oshiradi. Xalqaro turistik oqimlarning rivojlanishi to'rtta omillar guruhiga bo'linadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

XX asrning oxirida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borildi, ular asosan turizmni multiplikativ samaradorligi, turizmga ekonometrik modellar qo'llash masalalari bilan shug'ullanishgan. Ularga Archer, Fletcher, Krompton, Archer and Fletcher, Crompton larni misol qilib ko'rsatish mumkin. Turizm industriyasidagi moliyaviy inqirozlarga bag'ishlangan tadqiqotlar esa Bleyk, Pambudilar, turizmdagi daromadlar va ularni qambag'allikni qisqartirishdagi roliga bag'ishlangan ishlar bilan Bleyk, Sinklner, Wattanakuljarus Coxhead va boshqalar shug'ullanishgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tanlangan tadqiqot davrida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasi yoki turistik faoliyatni tashkil etishda xorijiy mamlakatlar tajribalari asosida mintaqalarda turizmni barqaror rivojlanish yo'llari ishlab chiqilgan. Dunyo mintaqalaridagi bugunki kundagi xaqiqiy xolat yoritilgan, ular tajribalari asosida mamlakat mintaqalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan yo'nalishlar taqdim etilgan. Turizm industriyasini rivojlantirish orqali mintaqalar iqtisodiyotiga ta'siri bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyoning yirik turistik mintaqalarning rivojlanganligi bo'yicha Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlari oldingi o'rinda tursa, ulardan keyingi o'rinda Lotin Amerika davlatlari, so'ng Karib xavzasi davlatlari, Osiyo, Avstraliya, Okeaniya mamlakatlari, Yaqin Sharq mamlakatlari, oxirgi o'rinlarda Afrika davlatlari turadi. "Bu ikki Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlaridagi turistik mintaqalarning rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Ularda aholining qariyb 90 foizga yaqini sayohat qilishni istashadi. Xalqaro turizmga ikki mintaqaning ulushi 90 foizga yaqin va xalqaro turizmdan tushadigan dunyo valyuta tushumining 3/4 qismi yuqoridagi ikki mintaqalar mamlakatlariga to'g'ri keladi" [1].

Yevropa mamlakatlaridan boruvchi turistlar oqimi asosan madaniy-tarixiy va tabiiy-geografik resurslardan bahramand bo'lishni xohlaydilar. Yirik turistik oqimlar asosan sanoati rivojlangan mamlakatlar hududidan ko'payotganligini kuzatamiz. Oqimlar ulardagi yuqori turmush darajasi, aholi zichligi kabi omillar ta'sirida rivojlanadi. Yevropa mintaqasida qishqi sport turlarini rivojlanganligi bilan Avstriya ajralib turadi. Bu mamlakatda ko'p yillardan beri aholi yoshlarini chang'i sporti bilan shug'ullanishga tayyorlashadi. Avstriyaning tog'-chang'i kurortlarining mashhurligi uchun ularga dunyoning ko'plab mamlakatlaridan dam oluvchilar tashrif buyurishadi.

Bu yerda tajribali mutaxassislar yordamida, qulay chang'i trasalarining mavjudligi, yangi texnikalar bilan qurollanganlik turistga chang'i sporti sirlarini tezda o'rganishini ta'minlaydi. Avstriya turistik tadbirkorlik rivojlangan mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakat YAIM da turistik tarmoqning ulushi qariyb 21 foizni tashkil etadi. Mamlakatning tog'-chang'i kurortlari asosan Alp tog'larida joylashgan. Barcha aholi punktlari turistlar uchun otellar vazifasini bajaradi. Sababi ularning barchasi qulay chang'i trassalari bo'ylarida joylashganligidir.

Fransiya — G'arbiy Yevropadagi davlatdir. Turizm industriyasi yaxshi rivojlanganligi, qulay rekreasion-geografik joylashuv, tabiiy va madaniy-tarixiy turistik resurslariga boyligi ham mamlakatni rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Yirik turistik oqimlarning kelishiga ta'sir etuvchi omillar bular transport aloqalari bilan bog'liqdir. La-Mansh bo'g'ozidagi tunnel orqali Buyuk Britaniya bilan Alp tog'lari orqali Shveysariya va Italiya bilan bog'langan tog' tunneli dunyodagi eng uzun yo'llardan hisoblanadi. Fransiya yil davomida 70 mln.dan ortiq chet ellik turistlar tashrif buyuradi.

Fransiya turistik mintaqalarining xilma-xilligi bo'yicha uning oldiga birorta G'arbiy Yevropa mamlakatlari tusha olmaydi. O'rta yer dengiz bo'yi Rivyerasi, Bretan plyajlari, Alp tog'laridagi tog'-chang'i markazlari, mineral suvli kurortli Markaziy massivlar, tabiiy muhitli shimoliy Fransiya va Reyn vodiysi va madaniy-tarixiy yodgorliklarga boy mamlakat hisoblanadi.

Bu yerda qadimiy aholi manzilgoxlari, yo'llar, turli arklar, arena maydoni gal-rim davriga xos, Shartre va Orlean soborlari, Laur saroyi, Fonenblo va Versal saroylari, Triumfal arkasi, Eyfel minorasi, Pompidu nomidagi markaz, Luvr piramidasi va ko'plab teatrlar, muzeylar joylashgan. Ekskursiya obyektlari Yevrodisneylend, Parij sobori, Luar saroyi, Parij diqqatga sazovor joylari, Burgundiya, Provans, Marsel, Bordoda mavjud. Eyfel minorasiga yiliga 6 mln., Pompidu markaziga 5 mln., Luvrga 5 mln., Muzey d'Orse 2 mln., Triumfal arkasiga 1 mln. turistlar tashrif buyurishadi.

Kanada — turistik oqimlar soni va turizmdan daromadlar bo'yicha dunyoning oldingi o'rinlarda turadi. Mamlakat rekreasion-geografik o'rin bo'yicha turistik resurslarini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bilan hamkorlik asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Mamlakat hududida asosan yovvoyi tabiatning keng tarqalganligi bu yerda o'ziga xos turizm turlarini rivojlantirish zarurdir.

Mamlakat asosiy turistik bozorlaridan uzoqda joylashganligi, kam tarixga egaligi, hududda kam madaniy-tarixiy yodgorliklarni kamligi faqat mamlakatda turizmning tabiiy turlarini rivojlantirishga asos bo'ladi. Milliy parklarni kengaytirish, ekstremal turizm, tanishuv turizm, ekologik turizmni rivojlantirish zarurdir. 2002-yilni



Yunesko tomonidan ekologik turizm deb nomlanganligi va Kvebekda ekologik turizm bo'yicha xalqaro sammitni o'tkazilishi ham tasodif emas. Unda 132 mamlakatdan 1000 dan ortiq delegatlar ishtirok etdilar.

Milliy parklar orasida Banf, Daynosor, Gleysheer, Ioxo, Baffalo mashxurdir. Ichki va tashqi turizm mamlakatda mavsumiy hisoblanadi. Mavsumning eng ko'tarilgan payti iyul-avgust oylari sanaladi. Kanadaga tashrif buyuruvchilarning asosiysi Toronto, Vankuver, Monrealga shaharlariga to'g'ri keladi. Niagara eng mashhur sharsharalardan, sharsharaning Kanada qismining tabiati ancha boy. Uning yonida ko'plab otellar, dam olish maskanlari, tomosha maydonlari, kanat yo'llar joylashgan.

"Kanadaga keluvchilarning 21 foizi tabiatni ko'rishga, 12 foizi milliy parklarni ko'rishga, 2,3 foizi esa daryolar va ulardagi turli maskanlarni ko'rishga kelishadi. 6,7 foizi esa tabiatga ekskursiya qilish, ochiq tabiatda dam olish, baliq ovlash, turli sport o'yinlari bilan mashg'ul bo'lishadi. Eng asosiy maqsadlari diqqatga sazovor joylarni tamosha qilishdir. Kanada 2020 yilga qadar kirish turizmi bo'yicha peshqadamlikni saqlab qolmoqchi. Lekin Kanadaning rekreasion-geografik holati qulay emas. Yovvoyi tabiat saqlanib qolgan, mamlakatning geografiyasi ko'p, lekin tarixi kam sanaladi" [2]. "Kanada faqatgina ekoturizmdan tushgan soliq hisobidan yiliga 1,7 mlrd. AQSh dollari miqdorida foyda oladi" [3].

Bunday turizmni rivojlantirishda O'zbekiston Respublikasiga Kanada tajribalari asqotishi mumkin. Chunki, mamlakat mintaqalarida turistik faoliyat jadal rivojlantirilmoqda. Shulardan biri Farg'ona vodiysini o'rganadigan bo'lsak, bu o'lka o'zining foydali qazilmalari va bioresurslari bilan mashhur. Ulkani beshta turistik-rekreasion rayonlarga bo'lib o'rganilgan bo'lib, 105 ta tabiiy, tarixiy-madaniy, ijtimoiy-xo'jalik obyektlar faoliyat ko'rsatmoqda. Baykal orti o'lkasini turistik-rekreasion potensial rivojlanish darajasi tahlil qilinib, iqtiqbolda rivojlantirish yo'nalishlari va investisiyalarni jalb etishning turistik-rekreasion qobiqning aniq yo'nalishlari ko'rsatib berilgan. Farg'ona vodiysi turistik-rekreasion potensialining darajalarga bo'lib aniq o'rganilgan. O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlanishi bir qator quyidagi imkoniyatlari mavjud:

- birinchidan, tabiiy-rekreasion resurslarga boyligi, turli-tuman ko'rinishli turistik obyektlarining mavjudligi va buxtalar sonining ko'pligi, landshaftning o'ziga xosligi, tog'li hududlarning mavjudligi;
- ikkinchidan, hududning tarixiy va arxitektura yodgorliklariga boyligi, yashash sharoitining yuqoriligi, aholining milliy hamda etnik tarkibi, ta'limning yuqori darajasi;
- uchinchidan, turizm rivojlanishiga iqtisodiy, iqtisodiy-geografik omillarning ta'siri, umumiy iqtisodiy rivojlanish darajasining yuqoriligi, urbanizatsiyaning yuqori darajasi, transport va ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanganligi, yirik turistik markazlarning mavjudligi, turistik-rekreasion majmuaning yuqori darajada rivojlanganligi, tashkilotning boy tajribasi;
- to'rtinchidan, siyosiy omil mintaqaning dunyo rivojlanishidagi o'rni, siyosiy va iqtisodiy integratsiyalashganligi, pasport rejimi hamda chegara tizimidagi yengilliklar.

Singapurda turizm tabiatning o'ziga xosligi, iqlimga bog'liq holda keng rivojlangan. Singapurdagi turistik faoliyat bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar antropogen obyektlardan keng foydalaniladi. Ularga tematik parklar, etnik qishloqlar, ko'rgazmalar, savdo markazlari kiradi. G'arbiy Yevropa, Shimoliy Amerika, Avstraliya, Janubiy Afrikadan keluvchilarning asosiysi ekvatorial orollardan iborat turistik resurslarga boy mintaqalarga borishni istashadi. Singapurda rekreasiya va turizmni gurkirab rivojlanishiga sabablardan biri yuqori darajada rivojlangan transport xizmatidir. Ularda 50 aviakorporatsiyalar muqim marshrutlarni amalga oshirish bilan Singapurni butun dunyo bilan bog'lamoqda. Turkiyada ko'plab yozgi kurortlar yevropaliklar va rossiyaliklarni jalb etishga sabab bo'ldi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, yuqorida keltirib o'tilgan fikr-mulohaza va taklif-tavsiyalardan Xitoy Xalq Respublikasida ham oqilona va samarali foydalanilmoqda. Bu borada ushbu davlatga uning – qadimiy dunyo sivilizatsiyasining 4 ta yirik davlatlaridan biri ekanligi katta yordam beradi. Turizmdan daromadlar olish bo'yicha dunyo bo'yicha 3-o'rinni egallaydi. Xitoyda Yunesko tomonidan ro'yxatga olingan 41 ta tabiiy obyektlar, 29 ta madaniy obyektlar, 8 ta tabiiy va madaniy-tarixiy obyektlar joylashgan. Xitoy bir qator turistik mintaqalarga bo'linadi (1-jadval).

1-jadval. Xitoyning rekreasion mintaqalari¹

№	Mintaqalar nomi	Maydoni ming km.kv	Sayohat qilish mumkin obyektlar	
			Davlatga qarashli obyektlar soni	Xususiy obyektlar soni
1	Shimoliy-Sharqiy mintaq	1347	11	64
2	Markaziy-Sharqiy mintaq	1770	49	241

1 Манба: Муаллиф ишланмаси



3	Janubiy-Sharqiy mintaqa	1458	48	220
4	Shimoliy-g'arbiy mintaqa	2376	4	34
5	Janubiy-g'arbiy mintaqa	1940	2	31

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Xitoyda beshta turistik mintaqalar mavjud. Ular shimoliy-sharqiy, markaziy-sharqiy, janubiy-sharqiy, shimoliy-g'arbiy, janubiy-g'arbiy mintaqalarga bo'linadi. Sayohat qilish mumkin bo'lgan diqqatga sazovar joylar asosan janubiy-sharqiy mintaqada 220 ta xususiy, 48 ta davlatga qarashli obyektlar mavjud. Markaziy-sharqiy mintaqada 241 xususiy, 49 ta davlatga qarashli obyektlar joylashgan. Eng ko'p turistlarni tashrif buyuruvchi mintaqalar ham aynan ikki mintaqa hisoblanadi.

Janubiy-g'arbiy mintaqada davlatga qarashli 2 ta, 31 ta xususiy rekreasion resurslar obyektlari joylashgan. Mintaqalar bo'yicha taqqoslanganda aynan shu mintaqada eng kam rekreasion resurslar obyektlari joylashganligini ko'rish mumkin. Mintaqalar o'rtasidagi tafovutlarni kamaytirish maqsadida hozirgi kunda bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. "2005 yildan boshlab Xitoy turindustriyasi 3 yo'nalish bo'yicha rivojlanmoqda. Bular:

- birinchi yo'nalish, Xitoy Osiyo regionida eng ko'p turistlar keluvchi hududga aylandi;
- ikkinchi yo'nalish, mamlakatda nishonlanuvchi milliy bayramlar orqali ichki turizmni jadallik bilan rivojlantirilmoqda;
- uchinchi yo'nalish, mamlakatdagi mavjud yirik tarixiy obidalar orqali turizm infrastrukturasi jadallik bilan rivojlanmoqda" [4].

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Xitoy turistlarini mamlakatimizga jalb etish ishlarini kengaytirishimiz zarur. Xitoyda birinchi marta Disneylend 2005-yil 12-sentyabrda Syanganda ochilgan. U disney-park shaklida ochilgan bo'lib, maydoni 126 gektar, bu yerda bandlar soni 5000 kishini tashkil etadi. Xitoy Disneylendida mamlakatdagi fontanlar, sharsharalar, mashhur yo'llar, xalq boyliklari to'g'risida ma'lumot beradi. Bu parklarda dam oluvchilarning asosiylari xitoyliklar hisoblanadi.

Xitoy "Uolt Disney" kompaniyasining reklamalarda katta rol o'ynadi. Asosiy personajlarda xitoy qizi Mulan tasvirlangan. Bu personaj asosida millionlab futbolkalar ishlab chiqarilgan va park hududida sotilgan. Restorarlarda esa Xitoy milliy oshxonasi mahsulotlari taklif etiladi. U asosida ko'plab esdalik do'konlari faoliyat yuritadi. Syangan Disneylendi XXR ning ichki hududlarini zabt etishda katta rol o'ynadi. Mamlakatlar uchun turizm industriyasini rivojlantirish har tomonlama zarurdir. "Koreya Respublikasi uchun rekreatsiya sohasi ancha yangi sanaladi. Yettita yangi kongress-ko'rgazma markazlari mavjud, 588 ta mehmonxona tizimi 60 mingdan ortiq nomerlardan iborat.

Koreyada tibbiyot turizm ancha rivojlanmoqda, lekin birorta bu sohani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi mavjud emas. Kosmetik xirurgiya yuqori darajada rivojlangan. Kannam – Seulning asosiy Xitoy va Yaponiyadan keladiganlar yashovchi rayon sanaladi. Bu rayonda 430 ortiq kosmetologik klinikalar faoliyat ko'rsatadi. Ular bir qatorda plastik xirurgiya va dermatologiya markazlari rivojlanib bormoqda. Bu rayon Koreyada "Go'zallik rayoni" deb yuritiladi. Tog'-chang'i yo'nalishi jadal rivojlanib bormoqda. Koreyada 13 ta dunyo darajasidagi kurortlari mavjud. Ularga kurort "Chisan Forest", kurort "Yanchji Payn", "Ski Velli", kurort "Konchjiam" kiradi. Kanvondo provinsiyasi baland va past tog'lardan iborat provinsiyasi sanaladi, bu yerlarda qish erta boshlanadi. Bu yerda sakkizta tog'-chang'i kurortlari joylashgan, ularga kurort "Yonpxèn", kurort "Temèn Vivaldi Park", kurort "Feniks Park", kurort "Sonu", kurort "Elisi-an Kanchxon", kurort "Ouk Velli Snou Park", kurort "O2" kiradi [5].

Birlashgan Arab Amirli (bundan keyingi o'rinlarda BAA deb yuritiladi) bu hududida 5 minglik tarixga ega hudud hisoblanadi. Bu yerda ko'plab tarixiy-madaniy yodgorliklarga boy sanaladi. Hamda amirlikda gullagan bog'lar, cho'llar, muhtasham otellar, yirik savdo markazlari, qadimiy saroylar, zamonaviy ko'p qavatli binolar, qulay otellar va ofislar, yirik medisina tarmoqlari, ana'anaviy sharq bozorlari va ko'plab musulmonlar uchun masjidlar joylashgan. Qadimiy shahar masjid va portdan shimolda joylashgan, hozirda katta bozor va soat minorasi bor.

Oldin bu yerda 20 tadan ortiq toshli uylar shamol minoralari bilan faoliyat yuritgan. Al-Muzaffo etnografik qishloq va 20 dan ortiq umumiy parklar va bog'lar joylashgan. Abu-Dabi ajoyib yashil shahar unda ko'plab parklar, keng ko'chalar, zamonaviy binolar, savdo markazlari, gazonli maydonlar, palmali daraxtlar, dekorativ hunarmandchilik ustaxonalari joylashgan. Qadimiy portlardan biri Al-Xusndir. Unda shayx Shaxbut saroyi joylashgan XIX asrda qurilgan. Bu inshoot qadimiy arxitektura inshootlardandir. Hozirda bu yer hujjatlar va tadqiqotlar markaziga aylantirilgan va tarixchilar mintaqa arxivlarini saqlaydi.



Dubay zooparki bolalar va o'smirlar o'rtasida keng tarqalgan joylardan biri. Uald Uadi Akvaparki Djumeyra Bich Roud Dubayda joylashgan eng mashhur dunyoning tematik akvaparklaridan biridir. U 5 gektar maydonni egallaydi va har bir attraksion o'zlarining afsonalariga ega. Misol uchun u yerda Sinbandning qadimiy joylariga sayohat qilishni ko'rish mumkin. Shu bois ham, u yer bolalar va o'smirlarning eng qiziqarli joylaridir. Bundan tashqari ushbu majmuada 24 ta suv attraksionlari, suv o'yinlari mavjud.

Eng balandlari 32 metr va eng tez poygalar tashkil etiladi. Suv poygalarida 80 km/soat tezlikga ega. Tematik Park — bu maydonda attraksionlar ko'plab yoshlarni qamrab olgan. Bu yerda karting, karusel, avtodrom, lodkodrom, kichik qayiqlardagi poygalar o'tkaziladi. BAA dagi attraksionda 7 metr balandlikda havoga ko'tarilish mumkin. Buni «Kosmosdan sakrash» deb nomlanadi.

Splashlend Akvapark— 9 ta suv attraksionlarini taklif etadi. Unda uchta basseyn mavjud bo'lib: yoshi kattalar, bolalar va suv sporti o'yinlari tashkil etiladi. Kechqurun tumanli ko'ldaga ekranda suv harakatini namoyish etish ko'rsatiladi. Yaqin Sharqda birinchilardan bo'lib golfni rivojlantirish ishlarini boshlagan, beshta xalqaro darajadagi maysali maydonlar barpo etilgan.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, xorijiy mamlakatlar tajribalaridan O'zbekiston Respublikasi va uning hududlarida o'ziga xos imkoniyatlaridan kelib chiqib keng foydalanish ushbu sohani jadal rivojlantirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugunki kunda turizm industriyasi jadal va barqaror rivojlanib borayotgan eng yosh tarmoqlar biridir. Bundan tashqari turizm dam olish sohalari bilan emas, balki tovar va xizmatlarni transchegaraviy harakatlarini ta'minlash orqali mamlakat mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mintaqalararo nomutanosibliklarni bartaraf etishga, mamlakatning iqtisodiy o'sish sur'atini yuqorilashuviga, mintaqa aholisi o'rtasidagi ishsizlik darajasini kamayishiga, turizm bilan birga yangi tarmoqlarni shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Agar ular tajribasini mamlakat turizmini rivojlantirish uchun qo'llaydigan bo'lsak, quyidagilarga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- turizmni rivojlantirishda investision dasturlarni amalga oshirishda yirik davlatlarni hisobga olish;
- keng masshtabli dam olishni tashkil etish va mamlakat kurortlarini umummilliy reklamasini yo'lga qo'yish;
- turistik hududlarda davlat nazoratini tashkil etish, ekologik monitoring o'tkazish;
- rekreatsiya va turizmdan majmuali tarzda foydalanish, turistik mahsulotlarni ko'paytirish;
- turistik mahsulotlar savdosini ichki va tashqi xizmat bozorlardagi harakatini tashkil etish va rivojlantirish;
- turistik bozorlarni yangi segmentlar orqali egallash va aktiv faoliyatni amalga oshirish, mamlakatda transport xizmatini yuqori darajaga ko'tarish.

Xulosa sifatida shuni aloxida ta'kidlash kerakki, mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishida turizm industriyasi o'rnini oshirish, xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish asnosida har bir mintaqa uchun mos keladigan turizm sohasi uchun mos imkoniyatlarni aniqlash, shu orqali mintaqalar raqobatbardoshligini oshirish maqsad qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. N.S.Mironenko, I.T.Tverdoxlebov. "Rekreacionnaya geografiya" uchebnoye posobii. M.1981 g.
2. A.M.Sazykin «Mesto Kanady v turizme stran ATR» Materialy mejdunarodnogo nauchno-prakticheskogo semira. Vladivostok. 28-29 oktyabr 2004 g.242-248 st.
3. N.Ye.Ibadullayev, M.X.Xamitov, S.A.Abduxamidov, M.I.Daminov. Mintaqaviy turizm.o'qv qo'llanma. Samarqand-2018 y.56 b
4. Pulnikova A.A, Bovtun V.S Turizm v Kitaye perespektive yego razvitiya. Barnaul. 2008 g
5. N.S. Martyshechenko. Opyt klasternoy politiki v turizme Yujnoy Koreye. Vladivostokskiy gosudarstvennyy universitet ekonomiki i servisa, Rossiya. 2005 g
6. Z.T.Abdulhakimov, M.I.Ibragimova (2019). Gravity Modeling of Recreational Tourism (In the Example of Namangan Region of the Republic of Uzbekistan). International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT) ISSN 2249-8958 (Online), volume-9,Issue-2, December 2019, Page No 1402-1408. 4.Z.T. Abdulhakimov (2019). The use of recreational objects, bases and gravitational models in the region// Science and Practice of the Plekhanov Russian University of Economics. Vol.11.no.1 (33) 2019, p 78-86.
7. Khurramov Azizbek, Abdulhakimov Zuhrali Tursunaliyevich, Ibragimov Gayrat, MullabayevBaxtiyarjon Bulturbayevich, Nasrullaev Azamkhon. (2020). USE OF GRAVITY MODELS IN THE DEVELOPMENT OF RECREATION AND BALNEOLOGY. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt / Egyptology, 17(6), 13908-13920. Retrieved from



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
